



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHTIRISH VA BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH (TAYYORLOV GURUHI MISOLIDA)

Kodirova M.E.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: harakatli o'yinlar, maktabgacha yoshdagi bola, axloqiy va irodaviy sifatlar, shakllanish, rivojlanish, sabr-toqat, chidamlilik, rivojlanish, tayyorlov guruhi, o'yinlar, pedagog.

Ключевые слова: активные игры, ребенок дошкольного возраста, морально-волевые качества, формирование, развитие, терпение, выносливость, развитие.

Key words: active games, preschool child, moral and volitional qualities, formation, development, patience, endurance, development.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida harakatli o'yinlar qo'llash orqali ularda jismoniy, axloqiy irodaviy fazilatlarining shakllanishi, harakatli o'yinlar va ularning qo'llanishi, o'yinlarni bolalarning yoshiga mos holda tanlash, harakatli o'yinlarning turlari va ularning bolalarda rivojlantirish vazifalari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описано формирование физических и нравственных качеств у детей дошкольного возраста посредством использования подвижных игр, подвижных игр и их использования, виды подвижных игр и задачи их развития у детей.

SUMMARY:

This article describes the formation of physical and moral qualities in preschool children through the use of mobile games, mobile games and their use, types of mobile games and their development tasks in children.

Kirish. Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlash bugungi kundagi muhim muommolarimizdan biri hisoblanadi. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino ta'kidlaganidek bola tug'ilganidan boshlab uni to'g'iri tarbiyalash va shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ayniqsa harakatli o'yinlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Bola shaxs sifatida shakllanib borishida harakatli



o'yinlarning o'rni uni bolaning yoshiga mos holda tanlash zarurligi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bildirganlar.

Bolalar va o'smirlarning past darajadagi harakat faolligi muammosi bugungi kunda keskin bo'lib turibdiki, bu bolalarning kam harakatlilik, sog'lom turmush tarziga rioya etmayotganliklari, kompyuter o'yinlari va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlari sababli yuzaga kelayotganligi bilan asoslanishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun harakatli o'yinlar – bu nafaqat jismoniy faoliyat, balki ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish va aqliy faollikni rag'batlantiruvchi muhim vositadir. Harakatli o'yinlar bolalarning sog'lom o'sishida, o'zaro munosabatlarni o'rganishida va jamoada harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya metodi va vositasi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya faoliyatlarida va jismoniy daqiqalarda keng qo'llaniladi.

Jismoniy tarbiya faoliyatlarida harakatli o'yinlar dastur talablariga mos ravishda ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini hal etishi uchun foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya faoliyatlaridagi o'yinlarni boshqa mashg'ulot shakllaridan farqi eng muhimi o'yinni ta'limiy va sog'lomlashtirish tomoniga diqqatni qaratish kerak, shuningdek, jismoniy tarbiya sifatiga ham.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda quyidagi asosiy vazifalarni nazarda tutishi lozim: Tarbiyalanuvchilarning jismoniy jihatdan normal o'sishlariga, salomatliklarining yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizmlarining va umumiy ish qobiliyatlarining o'sishiga yordam berish. Tarbiyalanuvchilarga harakat faoliyatining xilma-xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini beradigan zaruriy bilimlar berish va ularda kerakli harakat malakalari hosil qilish. Tarbiyalanuvchilarda turmush faoliyatiga yordam beradigan aqliy va irodaviy xislatlarni tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, rejimga rioya qilishga qiziqish uyg'otish. Bolalarda harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zaruriy bilim va malakalar hosil qilish. Faoliyat jarayonida bunday vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda axloq normalarining tarkib topishi, shuningdek, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarining ham bajarilishiga erishish lozim.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda pedagogning tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi roli juda mas'uliyatlidir. O'yinni o'rgatish jarayoni shunday uyushtirilishi kerakki, unda bolalarga o'zaro o'rtoqlarcha munosabatda bo'lish, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish tuyg'ulari singdirilsin.

O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan uni to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyatga egadir. Ammo o'yinni tanlash va o'tkazishning o'zi hamma vaqt ham



tarbiyaviy vazifalarni hal qilavermaydi. Tarbiyaviy ish sohasida yaxshi natijaga erishish uchun o'qitish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish zarur.

Bunda harakatli o'yinlar tashkil qilinishi va o'tkazilishining doimo tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi juda muhimdir. O'yin rahbari bolalar jamoasini yaxshi bilgan, har o'tkaziladigan o'yinning mazmun va qoidalari bilan mufassal tanishgan, o'qitish jarayonida esa yuksak pedagoglik mahoratni namoyish qila olgan taqdirdagina har bir o'yinni ta'lim-tarbiya nuqtai nazaridan to'g'ri yo'lga qo'yishi mumkin.

Shunday qilib, o'yinlar asta-sekin murakkablashib boradi, yangi-yangi o'yinlar o'rganiladi. Bu esa bolalarda yangi harakat ko'nikmalarini hosil qilishga va ilgari o'rganilgan texnika elementlarini takomillashtirishga yordam beradi, harakat ko'nikmalarining, shuningdek, o'yinda ilgari orttirilgan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishmoq uchun materiallarni muntazam ravishda takrorlab va mustahkamlab borish zarur. Ammo bundan bir xil o'yinlarni muntazam ravishda takrorlab borish lozim, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda rahbar mazmuni jihatidan har xil bo'lgan o'yinlarning ma'lum bir qismini qaytarishni nazarda tutishi va o'quvchilarning o'yinlarni yaxshilab o'zlashtirib olishlariga erishuvi kerak. Pedagog bolalar o'yinini muntazam ravishda tekshirib borishi lozim. Bunday qilish o'yin qatnashchilarining kamchiliklari va yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashga hamda bu kamchilik va xatolarni puxta o'zlashtirib olishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinlarni tashkil etish tamoyillari

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

- Yoshga moslik;
 - Bolalarning jismoniy holatini inobatga olish;
 - Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
 - Rag'batlantirish va ijobiy baholash;
- Ko'proq guruhiiy ishtirokni ta'minlash.

Harakatli o'yinlar bolalarni harakatga jalb qilish, jismoniy faollikni ta'minlash bilan birga, ularning aqliy va axloqiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin jarayonida bola mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga va muayyan strategiyani tanlashga o'rganadi. O'yinlar bolalarning o'zaro muloqotini kuchaytiradi, bu esa ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Harakatli o'yinlarning maqsadi:

- Bolaning harakat faoliyatini rivojlantirish;
- Jismoniy sog'lomlashtirish;
- Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Tezkorlik, chaqqonlik, muvozanatni oshirish.

Ushbu sifatlarining shakllanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ham ruhan ham manan rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Bola harakatli o'yinlar oraqli



jamoaga qo'shilishi ijtimoiylashuvi osonroq kichadi. Harakatli o'yinlar orqali bola o'ziga do'st o'rtoq topishda umuman qiylanmaydi. Ushbu o'yinlarni to'g'ri tashkillashtirish bolalarning har tomonlama o'sib ulg'ayishida poydevor bo'ladi. Ayniqsa tayyorlov guruhi yani 5-6 yoshli bolalarda tashkillashtirish ijobiy natija beradi.

Xulosa qilib aytganda harakatli o'yinlar qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa tayyorlov guruhi bolalari uchun muhim ahamiyat kasb etdai. Bu o'yinlarni chiroyli, mazmunli tashkil qilish esa maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisidan yuqori mahoratni talab etadi. Bolalarda qo'llaniladiga harakatli o'yinlar ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalashda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Harakatli o'yinlar orqali bola o'zi mustaqil fikrlashi, liderlik qobiliyatlarini shakllantirishi isbotlangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni samarali tashkil etish – bu bolalarni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. To'g'ri tanlangan va oqilona tashkil etilgan o'yinlar orqali bola sog'lom, ijtimoiy faol va aqliy jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanadi. Tarbiyachilar bu borada puxta tayyorgarlik ko'rishi, har bir o'yin jarayonini pedagogik maqsadlarga muvofiq rejalashtirishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida harakatli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Bu o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga, harakat koordinatsiyasi, tezkorlik, chaqqonlik kabi fazilatlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'yinlar orqali bolalarda ijtimoiylashuv, jamoada harakat qilish, qoidalariga amal qilish kabi muhim ko'nikmalar ham rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ABAIYOTLAR:

1. D.Zayniddinova, G.Usmonxodjaev “Bolalar uchun harakatli o'yinlar”. Tosh. “Yangi asr avlodi” (2006).
2. Mahkamjonov K., Salomov R., Ikromov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik T; Iqtisod-Moliya (2008)
3. M.E.Kodirova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni tahkil qilish va tayyorlov bolalarda axloqiy va irodavuy sifatlarini shakllantirishdagi ahamiyati. „Eurasian journal of academic research” (2023)
4. Tulenova X., Xo'jaev.P, Xo'jaeva K., Meliev O., Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya (2012) o'quv qo'llanma.
5. T.Usmonxo'jaev., M. Toirova., X.Sagdiev., T.Sharipov. “Kichkintoylarga 200 ta harakatli o'yinlar” (2006)
6. T.S.Usmonxo'jaev., S.T.Islomova. “Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya” Tosh. – “Ilm ziyo” (2006)
7. Xo'jaev F., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B., «Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi» Cho'lpon nashriyoti; Toshkent (2011)